

ORTA OSIYO EGIPETI» TOSH ASRIDA

Aytimuratova Hurliman

Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

Rezyume: *bu maqolada asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tarixiy yodgorliklarning rivojlanishiga bog'liq tarixiy arxeologik manbalar keng tahlil qilingan. Shu bilan birga yodgorliklarning insonlar hayotida tutgan orni va ular orqali insonlar qarashlarining xususiyatlari yoritib berilgan.*

Kalt so'zlar: *Kelteminar madaniyati, zinjanthrop, material, madaniyat, ekspeditsiya, tsiklon, makon, toshloq, tosh davri, gominid, mo'nshoq, mikrolit.*

Buyuk ikki daryo Jayxun va Sayxun orasidagi «Orta Osiyoning Egipeti» deb nomlangan Qoraqalpog'iston yeri jahon madaniyatining qadimgi markazlarining biri hisoblanadi. O'lkamizdagi keng maydonlaridan to'pilayotgan qo'ldan ishlangan mehnat qurallar Qoraqalpog'iston hududida bundan 100 hatto 160 ming yillar ilgari hayot bo'lganligidan, ya'ni «Orta Osiyo Egipeti» deb nomlangan Qoraqalpog'iston yerlaridan qadimgi insonlar yashaganligin iftihar bilan ayta olamiz.

Qoraqalpog'iston hududida insoniyotning yodgorligi bobolari bol'gan zinjanthrop, pitekanthrop, sinantrop, neandertal insonlarining bo'lganligini tasdiqlovchi materiallar yo'q. Lekin qadimgi tosh davrining (paleolitning), orta tosh davrining (mezolitning), yangi tosh davrining (neolitning) materiallari ko'plab uchirashadi. Kelteminar madaniyati esa Markaziy Osiyo tarixida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Arxeologiya sohasida yerishgan bunday yutuqlardan hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ham ma'mnun bo'lib, prezidentimizning taklifi bilan 2021 yil aprel oyidan may oyigacha Qoraqalpog'istonda xalqaro ekspeditsiya o'tkazilib, undagi tarixiy va madaniy meros ob'ektlarining qadr-qimmatini baholash va ularni «YUNESKO» ro'yxatiga kiritilishi to'g'risida aytib o'tdi.

Qoraqalpog'istonning havosi qurg'oq hududlari vodiy, shol va makonlarni toshloqlar tashkil qiladi. Pliosenning oqiri bilan to'rtlamchi davrda (1,5 mln. yil ilgari) tabiiy holat o'zgaradi. Mussonlar bilan tsiklonlarning harakatlaridan qurg'oqchilik hududlarida habosi sovuq bo'lishi, ko'plab hududlarda makon, toshliqlik va chollarni paydo qiladi. Shu davrlardan Orol-Kaspiy oralig'i, Usturt tegisliklaridagi holat shu geografik muhitga moslashib, insonlarning shu yerlarda yashashi va shu yerlar vataniga aylangan. Bu

yerda insonlarning paydo bo'lish davri yuqori paleolit davriga tegishli bo'lib, bundan 35-30 ming yillardan, 12-10 minginchi yillarini o'z ichiga oladi. Kaspiyning shimoliy-sharqiy hududlari tog' tizginlari va Usturtda paleolit davrida shaqmoq toshlari ishlab chiqiladigan homashyo makonida insonlar paleolitning muste davridan mezolit va yangi tosh davrida makon qilib va keyin ko'chma sak qavmlari ham Usturtni o'zlashtiradi. Usturt hududlaridan tadqiq qilinib o'rganilgan tosh davridagi yodgorliklar insonlarning markaziy Usturtda barqaror yashab, mavsumlarga kelib vaqtincha o'zlashtirib va ovchilik qilib yashaganligidan xabar beradi. Tosh davrida yashovchilarning topografik joylashishiga ko'ra, qadimgi gominidlar paleolitda Shimoliy Kavkaz, Mangistog' orqali va Kaspiyning sharqiy hududlaridan Usturtga kelib o'rnatilgan. Yuqori pleystotsen oqirida havosi qattiq sovutib qurg'oqchilik bo'lib Orol-Kaspiy oralig'ida o'simliklar, hayvonlar kamayib gominidlarning yashashi yomonlashadi. Shunga qaramasdan bu yerda hayot bronza davrigacha davom qilgan. Lekin, paleolitda Sulton Ways (Qoratog') tizginlarida gominidlar uchun qulayli yashash muhiti bo'lsa ham bu hududlar to'liq tadqiq qilinmagan edi. Barcha tosh davrlarida mehnat qurollari ishlashda tosh asosiy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, qadimgi tosh asri to'g'risidagi ma'lumotlarni biz makon joylar va u yerdan to'pulgani bebafo qazilma boyliklardan bilib olamiz. Shunga qaramasdan Qoraqalpog'iston hududida Alduvay va Ashel davri to'g'risida to'liq tadqiq qilinmagan bo'lsa ham, muste va yuqori paleolit davri to'g'risida to'liqroq ma'lumotlar mavjud. Shulardan muste davrida yodgorliklarida Usturtdagi borsa kelmasning shimoliy-g'arbidagi joylashgan Esen-1,2 va Qoraquduq yodgorliklari kiradi. Esen yodgorliklarida toshdan mehnat qurollarin tayyorlaydigan ustoxonalar bo'lgan bo'lsa, Qoraquduq yodgorligi ovchilarning mavsumlarida ovchilik qiladigan o'rnini bo'lgan.

So'ngi tosh davrida makon joylarning madaniy qatlamlaridan suyak, yo'g'osh, iloy, toshdan ishlangan ayol haykallarining uchrachuvi ayollarga hurmat va jamiyatda ayollarning yuqori darajada bo'lganligini tasdiqlaydi.

So'ngi tosh davrida, insonlar dunyodan o'tgandan keyin ham uning hayoti davom etadi deb, marhum bilan birga tosh baqonchaq, hayvon fislari, yiltir tosh monshoqlar, hayvon suyaklarin va chaqmoq toshlarni solib ko'mib joylagan. Bu ularda diniy va u dunyo to'g'risida tushunchaning bo'lganligidan dalolatdir.

Mezolit davriga kelib mehnat qurollari va ularni ishlash texnikasi ham takomillashadi. Toshlardan sigment, trapetsiya va uch burchakli shakldagi mayda qurollar-mikrolitlar ishlandi. Inson bu qurollarni yo'g'oshlarning uchlariga teri yiplar bilan boylab, ularni pishoq uchiga foydalangan.

Qoraqalpog'istonda mezolit davri yodgorliklari Usturt tegisliklarida joylashgan Aydabol qudug'i atrofida joylashgan. Shu joyning nomi bilan Aydabol 2,4,6,9,11,14,16,25 va Aqtaylaq 1 makon joylari kiradi.

Neolit-insoniyat tarixining alohida davri bo'lib, neolitda tosh davri yakunlanadi. Neolitda mehnat qurollari tosh, yo'g'osh va suyakdan ishlanadi. Insonga o'zlashtiruvchi hayot kechirib, o'ziga zarurli mahsulotlarni tabiyatdan tayyor mahsulotlaridan foydalanib, 3 million yil davomida turmush keshiradi. Oziq-ovqatlarni olish usuli ya'ni dehqonchilik, sharvochilik mil.avv. XI-X minginchi yillari kelib chiqadi.

Neolit davrida Qoraqalpog'iston, Xorezm, Uzboy, Orol boyi, Zarafshonning quydagi hududlarida ovchilik va baliqchilik turlariga asoslangan Keltiminar madaniyati keng tarqaladi. Janubiy-sharqiy hududlari bilan yaqin hududlarda mill.avv. VI-III minginchi yillari Keltiminar madaniyati mavjud bo'lib hisoblanadi. Bu davrda Aqshadaryo deltasi «Ichki deltadan» ya'ni Orol dengizigacha hududlaridagi juda ham keng suv hududlaridan, hajmi botqoqliklardan, suvning to'lqini quyi bo'lgan ko'p sonli tarmoqlardan sheki yoq qamishliklardan, ormonlardan iborat bo'lgan. Aqshadaryo delta suvlarida, ko'llarida baliqlar va qushlar ko'p bo'lgan, ormonlarda va qamishliklarda ko'p sonli yovvoyi hayvonlar yashagan. Neolit davrida insonlar Aqshadaryo deltaning tashqi atrofida va uning ichidagi orolga, ko'l hududlarida yashagan. Arxeologlarning keyingi tadqiqotlariga mos, Aqshadaryo deltasining olovida bir necha turdagi yashash joylaridan iborat makonlar bo'lgan. Yashash joylarining bir qancha keng tarqalgan va o'ziga xos turi dunyo bo'ylab solingan to'g'ri burchakli shakldagi joylari bo'lib, yo'g'osh ustunlariga bekitilgan.

Neolit davrida havosi bir qancha nam bo'lib kelgan, Amudaryoning kuchli oqimi, toshqin suvi Qoraqumni kesib o'tib, Kaspiyga tomon oqqan, shimolda Aqshadaryoning janubiy deltasi deb nomlangan hududta katta suv havzalari, hajmi qalin ormonlar va qamishliklar bo'lib, bu joyda oqib turgan daryo tarmoqlarining oqimlari pas bo'lgan.

Qoraqalpog'istondagi neolit davri ikki tumandagi-Amudaryoning qadimgi Aqshadaryo deltasidagi va Usturt hududlaridagi chollardagi arxeologik yodgorliklar isbotlab beradi. Amudaryoning qadimgi deltasi Aqshadaryoning quyi boylaridagi, ichki Qizilqumning sharqiy tomonida, Amudaryoning quyi o'zanida, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududidan Keltiminar madaniyatining ko'plab makon joylari to'pilib o'rganildi. Mill.avv VI-III minginchi yillari Orol atrofining hududlarida xususiylashtiruvchi shakldagi eski iqtisodiyot asosida rivojlanib keliyotgan Keltiminar madaniyati hududidagi qavmlar joylashadi.

Neolit insoniyatning yangi hajmli hududlarni alohida keng o'zlashtirgan davri bo'ladi. Neolit davrida Orol boyida yashagan insonlar faqat gina daryo atrofida va delta boylarini gina emas, balki Qizilqumning va Usturtning ichki hududlarini ham o'zlashtira boshladi. Bizing davrimizga nisbatan neolit davridagi bir qancha qo'lay ekogeografik holat, landshaft, havosi holatlarining bu makonlarining o'zlashtirilishiga yordam berdi. Iloydan ishlangan joylar iyt daraxt shoxlaridan bostirilgan. Shularning yaxshi tadqiq qilinganlari Janbas-4,5,11,12,31 va S.P.Tolstov nomidagi turar joylar bo'lib to'piladi. Turar joylarning maydoni 80 kvadrat metrdan 120-150 kvadrat metrgacha bo'lgan joylarning ustiga yo'g'osh taxtalar ig'ilganidan keyin, uning usti qamish va yo'g'osh sirtlari bilan bostirilgan. Janbas-4 yodgorligi ichida doimo ot yonib turadigan markaziy oshoq va uning atrofida bir necha mayda oshoqlar bo'lgan. Turar joylarning tashqarisida uy rozg'orchiligi uchun xizmat qiladigan don saqlaydigan joylar mavjud bo'lgan.

Xulosa qilib aytganimizda insoniyat tarixi o'z ichiga bir necha yuz ming yilliklarni qamraydi. Qoraqalpog'iston hududida shu davrlarning deyarli barcha bosqichlariga tegishli yodgorliklar uchrashadi. Usturt hududida to'pilgan Esen, Shaqpaqti va Qoraquduq yodgorliklari o'lkamizda insoniyatning qadimdan 160 ming yildan ortiq vaqtdan buyon yashab keliyotganligidan dalolat beradi. Sultanvays to'g' tizimlaridagi to'pilgan arxeologik topilmalar hayot shu davrda faqat Usturt hududida gina emas, balki o'lkamizning janubida ham bo'lganligini ko'rsatadi. Yangi tosh va qola davrlariga kelib Usturtdan To'rtkul, Taxtako'pir hududlarigacha keng hududlarini o'zlashtira boshlagani ma'lum bo'ldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Мамбетуллаев М.М.Туребеков, М.Юсупов О. Қарақалпақстан Тарийхи, Нокис, 2010. 5-6 б
2. Қдырниязов Мухаммад- Шарип. Орта Азия Археологиясы Нокис, 2010
3. Хожаниязов Ф. , Хакимнызов Ж. Қарақалпақстанның әжайып жети естелиги Нөкис, 2004. 4-5 б
4. Мамбетуллаев М. М., Туребеков М. "Археология" Нөкис, 2014. 79-82 б
5. Бийимбетов, Ж. (2016). Толерантлықтың социомәдений феномен сыпатында өзгешеликleri. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 31 (2), 54-57.

6. Biyimbetov, J. K. (2021). Information Society Development Trends: Philosophical Analysis of Basic Concepts. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies.*–America, 2770-0003.
7. Kilishbaevich, B. J. (2022, December). Philosophical characteristics of information security and analysis of human problems in the 21st century. In *E Conference Zone* (pp. 1-3).
8. Kilishbaevich, B. J. (2022). Problems of protection against threats affecting human consciousness in the processes of information civilization. *Conferencea*, 1-3.
9. Biyimbetov, J. (2021). Philosophical analysis of the problem of information psychological security. *Адам әлемі*, 88(2), 3-9.
10. Biyimbetov, J. K. (2021). Political, economic, cultural and information development of the world in the process of globalization. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 91-92.
11. Biyimbetov, J. K. (2022). The problem of protecting people and society from information psychological threats. In *Military science development topical issues» international scientific and theoretical conference materials collection. Kazakstan.:–Almaty* (pp. 30-35).
12. Biyimbetov, J. K. (2022). Information wars as a socio-philosophical problem. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 281-283.
13. Biyimbetov, J. K. (2020). Ismaylova GJ *Insaniyattıń jańa civilizaciya lıq rawajlanıwında informaciyalıq urıslardıń insan ruwxılıǵına tásirı. Global science and innovations*, 2-4.
14. Biyimbetov, J. K. Philosophical and methodological analysis of the concepts of information and information society. *Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» атамасидаги Республика*, 7-8.
15. Biyimbetov, J. K. (2020). *Jámiyettiń rawajlanıwında informaciyaga bolǵan talap hám informaciyá mádeniyatı. Мир науки и духовной культуры в условиях глобализации и инновации (Сборник научных статей)» республика илмий-назарий конференцияси. Ўзбекистон.:–Нукус*, 175-177.
16. Biyimbetov, J. K. (2020). Information security as an object of social philosophy. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 194-196.
17. Biyimbetov, J. K. (2020). Socio-philosophical analysis of the concept of information society. *Science and education in Karakalpakstan. Karakalpak State University name after Berdakh–Нукус*, 244-246.

18. Kilishbayevich, B. J. (2023). Philosophical analysis of manipulation and information security problems. Sustainability of education, socio-economic science theory, 1(6), 143-146.
19. Biyimbetov, J. K. (2022). Development of society in information and communication processes. *Замонавий фан, жамият ва таълим: долзарб масалалар, ютуқлар ва инновациялар*, 88.
20. Biyimbetov, J. K. (2020). Қўйипсизликти тәмиинлеу мәселелериниң жәмийет турмысындағы әҳмийети. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 174.
21. Biyimbetov, J. K. (2019). Информация ҳәм информациялық қўйипсизликтиң философиялық анализи. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 83.
22. Мамбеткаримов P.P. Factors for Forming Critical Thinking in Students in the Educational Process // Research Journal of Humanities and Cultural Studies. 29-may 2022. Amerika. ISSN 2770-0003. SJIF Impact Factor (2022): 5.909. –Б. 1.
23. Мамбеткаримов P.P. Basic Principles and Methods of Using Media Education for forming Students' Analytical Thinking // Zien Journal of Social Sciences and Humanities. 15-noyabr. 2021.Amerika. ISSN 2769-996X. SJIF Impact Factor (2021): 5.818. –Б. 63-68.
24. Mambetkarimov R.R. The problem of analytical thinking in the current modern education system // International Multidisciplinary Conference. England.: – Manchester: 2022. –P. 128-131.
25. Mambetkarimov R.R. The relationship between the development of analytical thinking and problem-based learning in quality education // 8th-International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education., Germany.: – Berlin: 2022. –P. 77-81.
26. P.Tlepbergenova. Ecology of the Bukhara Deer in Our Country (Distribution and Origin). Research Journal of Applied Medical Sciences. 25.04.2022. 16-бет.
27. P.Tlepbergenova. Prospects For the Development of Ecological Tourism in Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2021-йил 15-ноябрь. 144-бет.
28. P.Tlepbergenova. Global ecological problems: Essence and possible solutions. International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR). 2021-йил 5-май. 108-бет.

29. P.Tlepbergenova. The impact of the Aral sea ecological problem on the ecosystem. «Қорақалпоғистонда фан ва таълим» журналы №4/2-сон (Нукус – 2021)

30. P.Tlepbergenova. The problem of technogen pollution to the environment. «Қорақалпоғистонда фан ва таълим» журналы №3-4 сон (Нукус – 2020).

31. P.Tlepbergenova. Ecology of education as part of the ecology of culture. Uzbek scholar journal. Mart 2022-жыл. 2-сан.

32. P.Tlepbergenova. The modern problem of technogen pollution. Materials of the republican 16-multidisciplinary online distance conference on "Scientific and practical research in Uzbekistan" part-22. 5-май 2020-йил. 58-бет.